


## YOSHLARNI TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARNI ROLI.



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand

Davlat universitetining Urgut filiali

Pedagogika va jismoniy

madaniyat kafedrasи o'qituvchisi

**Azimov Ozod Mamatkulovich**

*Annototsiya "Qadriyat" mazmun mohiyati va uning yoshlar tarbiyasidagi va ijtimoiy hayotdagi roli va ahamyati haqida malumotlar keltirilgan. Milliy qadriyatlar yoshlarni tarbiyalashda, ularning manaviy dunyosini boyitishda katta ahamyat kasb etishi haqida fikrlar keltirilgan. Yoshlarning ongini buzuvchi yot g'oyalarga qarshi kurashishda milliy qadriyatning o'rni va ahamyati keltirilgan. Vatanga muhabbat, ota onaga hurmat kabi tuyg'ularni yoshlar ongiga singdirishda "milliy qadriyat"larning roli.*

**Kalit so'zlar:** Yoshlar tarbiyasi, falsafiy asoslar, milliy qadryatlar, umuminsoniy qadryatlar, ma'naviy qadryatlar modiy, qadryatlar, ijtimoiy, qadryatlar shaxssiy qadryatlar, estetik qadryatlar.

**Abstract:** Information is provided on the essence of the content "Values" and its role and significance in the upbringing of youth and in social life. The ideas are presented that national values are of great importance in the upbringing of youth, in enriching their spiritual world. The role and significance of national values are presented in the fight against foreign ideas that corrupt the minds of youth. The role of "national values" in instilling feelings such as love for the homeland and respect for parents in the minds of youth.

**Keywords:** Youth education, philosophical foundations, national values, universal human values, spiritual values, material values, social values, personal values, aesthetic values.

**Аннотация:** Представлена информация о сути содержания «Ценности», его роли и значения в воспитании молодежи и в общественной жизни.

Представлены идеи о том, что национальные ценности имеют большое значение в воспитании молодежи, в богатстве ее духовного мира. Представлены роль и значение национальных ценностей в борьбе с чужеродными идеями, разрушающими сознание молодежи. Роль «национальных ценностей» в воспитании и образовании молодежи заключается в таких чувствах, как любовь к семье и уважение к родителям.

**Ключевые слова:** Воспитание молодежи, философские принципы, национальные ценности, общечеловеческие ценности, духовные ценности, материальные ценности, социальные ценности, общечеловеческие ценности, эстетические ценности

Kelajagimiz poydevorlari yoshlarni tarbiyalash ularni vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat, avlodlarga ibrat ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning o’rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlar yoshlar ongini turli xil yot g’oyalardan: buzg’unchilik, yolg’onchilik, ikkiyuzlamachilik, kabi yomon illatlardan himoya qilishga ular ongiga rostgo’ylik, ishbilarmonlik, hurmat, izzat kabi yaxshi illatlarni singdirishga yordam beruvchi muhim omildir. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev “Biz o’z milliy qadriyatlarimiz, ajdodlarimiz merosi, madaniyatimiz orqali yoshlarni har qanday yot g’oyadan, axloqsizlikdan, beparvolikdan himoya qilishimiz kerak “ deya ta’kidlaydi. Zero milliy qadriyatlarimiz yoshlarni ma’nan yuksaltiruvchi, taraqqiyotga yetaklovchi omildir. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlar nafaqat ularni ma’nan rivojlantirishga balki ularni etika va estetikaga boy bolishlari uchun ham hizmat qiladi O’zbekiston Respublikasi Prezedenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy, ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalasi bo’yicha o’tkazilgan videoselektor yig’ilishida “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bolsa uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi o’zbekistonni barpo qilishga qaror qilgan ekanmiz ikkita mustahkam ustunga tayanamiz.

Birinchisi – bozor to moyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot

Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat deya e’tirof etdilar.

Milliy qadriyatlarga muhabbat, avvalo, yoshlarda ajdodlarga muhabbat ularga qiziqish va ularni o’rganishdan boshlanadi. Yoshlarni muzeylarga, buyuk qadimiy joylarga, ziyyoratgohlarga olib borish orqali ham ulardan milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat uyg’otish mumkin.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ularning milliy qadriyatlarga bo’lgan munosabatini shakllantirishda musiqa tarbiya tasviriylar sa’nat, tarix kabi fanlar muhim orin tutadi.

Yurtimizda milliy bayramlar juda ko’p. Jumladan, Navro’z, Qurbon hayiti, Musraqillik kuni, Xotira va qadrlash kuni kabilalar.Ushbu milliy bayramlarimiz ham nafaqat yoshlar tarbiyasida, balki Yoshi ulug’ insonlar o’rtasida ham vatanga muhabbat hissini uyg’otadi.

Xususan, Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida “Agar biz yoshlarimizni milliy ruhda, axloqiy va ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalay olsak, kelajagimiz porloq bo’ladi” — deya ta’kidlaydi.Bu fikr ham o’z o’rnida yoshlar tarbiyasida, balki vatan kelajagi uchun ham milliy qadriyatning o’rni va roli muhimligini yana bir bor isbotlaydi.

Milliy qadriyat tushunchasini tor ma’noda tushunmaslik kerak.Milliy qadriyatlarimizga nafaqat milliy liboslarimiz, milliy bayramlarimiz, balki inson etika va estetikasi ya’ni salomlashish odobi, tashqi va ichki go’zallik, ota-onaga hurmat, rostgo’ylik kabilalar ham kiradi. Shu o’rinda Alisher Navoiyning ko’plab asarlarida yolg’onchilik qoralangan.U “Sher bilan durroj” nasriy asarida “Navoiy nima desang ham rost gapir; rostini kuylagan ohangga tahsin ayt” deya ta’kidlaydi. Bu esa insonni rostgo’ylikka chorlovchi bir milliy qadriyat desak mubolag’a bo’lmaydi. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o’rni va ahamiyati beqiyosdir.Yoshlar qalbida milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat uyg’otish uchun ko’plab ishlar olib borildi va olib borilmoqda.. Milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o’rni kun sayin kuchayib bormoqda.Chunki, hozirgi ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan davrda yoshlar ongiga

milliylikni milliy liboslar , milliy bayramlar, an'analar , urf-odatlar bilan singdirib borilmasligini yoshlar yot g'oyalarga qiziqib ketishlari ham mumkin.

Milliy qadriyatlar yoshlarni ko'p fanlarga: musiqa, tasviriy san'at, adabiyot, tarix kabi fanlarga qiziqiShiga ham sabab bo'lishi mumkin.Milliy qadriyatlarni sevuvchi, ularni biluvchi insonlarning tarbiyasi ham go'zal bo'ladi.Yoshlarda milliy qadriyatlarga nisbatan mehr- muhabbat hissini nuyg'otish orqali ularda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, salomlashish odobi, rostgo'ylik kabi xislatlarni uyg'otish mumkin. Yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni juda muhim hisoblanadi. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek " Bir bolaga yeti mahalla ham ota, ham ona" degan Har qanday millatning ma'naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unlashuvidan tarkib topadi. O'zbek xalqi bolajon xalq. Ularda qadimdan bag'rikenglik, mehmono'stlik kabi milliy qadriyatlar va an'analar saqlanib qolgan va hozirga qadar bu an'analar avloddan avlodga o'tib davom etib kelmoqda.Yoshlarimiz tarbiyasida o'zboshimchilik, loqaydlik, beparvolik kabi yomon illatlarni paydo bo'ldi degani, bu milliy qadriyatlarimiz toptaldi deganidir.Shuning uchun ham yoshlarda rosrto'ylik, ishbilarmonlik, jonkuyarlik kabi hislatlarni ularda yoshligidan shakllantirib borish shart va zarurdir. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir zamonda milliy qadriyatlarimiz nafaqat yoshlar tarbiyasida, balki katta yoshdagi bobo- buvilarimizga ham ibrat bo'la oladi. Hamma narsa oiladan boshlangani kabi, avvalo,, milliy qadriyatlar ham oiladan boshlkanmog'i kerak. "Qush inida ko'rganini qiladi" deganlaridek, farzand ota-onha ko'zgusidir. Ota-onalar farzandlariga salomlashish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, ota-onaga, qarindoshlarga hurmat kabi milliy qadriyatlarimizni bolalar ongiga yoshligidan singdirib bormog'i lozim., milliy qadriyatlarimizning yoshlarimiz tarbiyasidagi o'rni juda muhim. Har bir xalq o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlari va milliyligi bilan xalqdir.

Yoshlar tarbiyasi zamon talablariga mos ravishda doimiy ravishda rivojlanib boradi. Hozirgi kunda yoshlar ongida ekologik va estetik qadriyatlarni shakllantirish, ularning tabiatga bo'lgan munosabatini yuksaltirish, ayniqsa, ekoestetik idealni rivojlantrish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekoestetik ideal - bu tabiatni faqat tabiiy

resurs sifatida emas, balki insonning estetik qadriga ega bo‘lgan, ruhiy va ma’naviy qimmatga ega bo‘lgan bir butun sifatida qabul qilishdir. Bu, o‘z navbatida, ekologik ongni rivojlantirishga va yoshlarni ekologik muammolarni yechishda faol ishtirok etishga undaydi. Bunda ekologik tarbiya muhim o‘rin tutadi. Zero, “Ekologik tarbiya deganda asosan yoshlarda ekologik madaniyatni shakllanishi ko‘zda tutilmog‘i lozim. Chunki, ekologik madaniyat tushunchasi ham keng qamrovli bo‘lib, inson faoliyatining aksariyat qismini o‘zida mujassamlashtiradi. Ekologik madaniyatda ham insonparvarlik, axloqiy-ma’naviy xislatlar o‘z aksini topadi”

Har bir davlatning o‘z milliy bayramlari, o‘z milliy liboslari va milliy urf-odatlari bor. O‘zining milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini hurmat qilgan inson, boshqa yurtning ham milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarashi lozim. Yosh avlodlarga milliylikni faqatgina nazariy jihatdan emas balki, uni ko‘proq amaliy jihatdan singdirib bormoq lozim. Milliykikni tarannum etuvchi turli kuy-qo’shiqlar tinglash, milliy bayramlarni nishonlash, turli xil qadimiylardan qadamjolarga borish ham yoshlar ongida milliylikka bo‘lgan muhabbatning kuchayishiga sabab bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zb Res-I Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kengaytirish masalasi bo‘yicha o’tkazilgan videoselektordagi ma’ruzasi.(nutqi)
2. Alisher Navoiy “lison ut-tayr” asari tarkibidagi “Sher bilan durroj” hikoyasi.
3. Inomov Qodir Tursunovich “Qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” maqolasi.
4. “Toshkent shahrida milliylikni keng targ’ib qilishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 2025-yil 21-yanvardagi Toshkent hokimi Shavkat Umurzoqov qarori.
5. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”.